



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI STATISTIKA AGENTLIGI



BUXORO VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

*2023- yil 1- iyun holatiga ko'ra
(fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)*

*Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi
Adliya vazirligi Davlat xizmatlari markazi
ma'lumotlar bazasi asosida shakllantirildi*

So‘nggi yillarda hukumatimiz tomonidan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va bunyodkorlik salohiyatini qo‘llab-quvvatlash orqali aholiga munosib hayot sharoitlarini yaratish, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, bandlikni ta’minlash bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirib kelinmoqda.


Xususan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakatimiz iqtisodiyotining asosiy bo‘g‘ini hisoblanib, bugungi kunda mazkur sohani jadallik bilan rivojlantirish, tadbirkorlar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, ularning safini yanada kengaytirish va rag‘batlantirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilyapti.

Jumladan, 2023-yil 1-iyun holatiga viloyatda faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni (fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari) 30 111 tani tashkil etdi (ulardan kichik korxona va mikrofirmalar 26 568 ta). O‘tgan yilning mos davriga nisbatan faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar sonining pasayishi 5,5 foizni (jumladan, kichik korxona va mikrofirmalar 6,1 foiz) tashkil etdi.

**Korxona va tashkilotlar to‘g‘risida umumiylumotlar
*fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari, 1-iyun holatiga ko‘ra, birlikda.***

Faoliyat ko‘rsatayotgan

Ro‘yxatdan o‘tgan




Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar
2023- yil yanvar-may holatiga ko'ra, birlikda


Yillar kesimida soni

2023	2 632
2022	2 137
2021	2 694
2020	2 000
2019	3 490

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



2023- yil yanvar-may oylarida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni 2018- yilning mos davri bilan solishtirilganda 1 031 taga ko'payganligini ko'rish mumkin.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar sonining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2018- yilning mos davri bilan solishtirilganda, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar 963 taga, oilaviy korxonalar 139 taga ko'paygan.


Hududlar kesimida


Buxoro sh.	508	6,4 %	Buxoro t.	153	7,0 %
Qorako'l t.	256	15,5 %	Kogon sh.	138	11,6 %
Romitan t.	287	10,3 %	Olot t.	128	11,8 %
Kogon t.	234	8,4 %	Shofirkon t.	129	7,2 %
G'ijduvon t.	218	7,2 %	Peshku t.	124	7,4 %
Jondor t.	215	9,0 %	Qorovulbozor t.	56	7,7 %
Vobkent t.	186	10,4 %			

2023- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)

Yillar kesimida soni

2023		30 111
2022		31 873
2021		29 761
2020		24 617
2019		21 237



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Sanoat



Qurilish



Savdo



Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish



Axborot va aloqa

Sog'liqni saqlash va
ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Boshqa turlar

2023- yil 1- iyun holatiga faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 2022- yilning mos davriga (31 873 ta) nisbatan 1 762 taga pasayganligini quyidagi sohalarda korxonalar sonining sezilarli pasayish bilan ifodalash mumkin: savdo – 9 098 tadan 9 080 taga (pasayish 18 ta), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 3 311 tadan 2 935 taga (376 taga kamaygan), sanoat – 4 890 tadan 4 140 taga (750 taga kamaygan).

Hududlar kesimida


Buxoro sh.	8 000	Vobkent t.	1 785
G'ijduvon t.	3 012	Peshku t.	1 680
Romitan t.	2 793	Qorako'l t.	1 656
Jondor t.	2 381	Kogon sh.	1 194
Buxoro t.	2 197	Olot t.	1 089
Shofirkon t.	1 797	Qorovulbozor t.	728
Kogon t.	1 799		

2023- yil yanvar-may holatiga ko‘ra, birlikda

Yillar kesimida soni

2023		2 576
2022		2 065
2021		2 634
2020		1 940
2019		3 378

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat
ko‘rsatayotganlarga nisbati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi



Sanoat



Qurilish



Savdo



Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish



Axborot va aloqa



Sog‘liqni saqlash va
Ijtimoiy xizmat ko‘rsatish



Boshqa turlar

Davlatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlariga qulay shart-sharoitlar yaratib borish bo‘yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida ularning yildan-yilga investitsiya va ishbilarmonlik muhiti yaxshilanib borayotgani namoyon bo‘lmoxda. 2023-yil yanvar-may oyida yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari soni 2 576 ta bo‘lib, shundan:

- mikrofirmalar va kichik korxonalar 2 572 ta;
- yirik korxonalar 4 ta.

Hududlar kesimida


Buxoro sh.	481	6,8 %	Buxoro t.	146	7,4 %
Qorako‘l t.	253	18,0 %	Kogon sh.	136	12,8 %
Romitan t.	286	11,1 %	Olot t.	126	13,6 %
Kogon t.	233	14,0 %	Peshku t.	123	8,4 %
G‘ijduvon t.	214	8,0 %	Shofirkon t.	124	8,0 %
Jondor t.	214	10,0 %	Qorovulbozor t.	56	8,6 %
Vobkent t.	184	11,6 %			

2023- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)

Yillar kesimida soni

2023	26 747
2022	28 476
2021	26 444
2020	21 357
2019	17 975



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Sanoat



Qurilish



Savdo



Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish



Axborot va aloqa



Sog'liqni saqlash va
ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Boshqa turlar


Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni 2023- yil 1- iyun holatiga 26 747 taga yetib, 2019- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 148,8 foizni tashkil etdi (8 772 ta). Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiyl sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 33,9 foiz, sanoat – 15,5 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 10,8 foiz, qurilish – 9,6 foiz, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 8,0 foiz, tashish va saqlash – 8,5 foiz, axborot va aloqa – 1,2 foiz, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish – 2,6 foiz, boshqa turlari – 9,9 foiz.

Hududlar kesimida


Buxoro sh.	7 063	Shofirkon t.	1 551
G'ijduvon t.	2 681	Peshku t.	1 469
Romitan t.	2 574	Qorako'l t.	1 408
Jondor t.	2 147	Kogon sh.	1 065
Buxoro t.	1 965	Olot t.	929
Kogon t.	1 664	Qorovulbozor t.	648
Vobkent t.	1 583		

2023- yil yanvar-may holatiga ko‘ra, birlikda


Yillar kesimida soni



Yangi tashkil etilganlarning faoliyat
ko‘rsatayotganlarga nisbati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi



Sanoat



Qurilish



Savdo



Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish



Axborot va aloqa



Sog‘liqni saqlash va
ijtimoiy xizmat ko‘rsatish



Boshqa turlar

Mamlakat iqtisodiyotining “sog‘lomligi”ni baholashning muhim omili – kichik biznes subyektlarining samarali faoliyat ko‘rsatishi bo‘lib, bu uning moslashuvchanligi va doimiy o‘zgaruvchan iqtisodiy vaziyatlarga moslasha olish ko‘rsatkichidir.

Shunda, 2023- yil yanvar-may oylarida axborot-kommunikatsiya sohasida yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari soni 2022- yilning mos davriga nisbatan 34 tadan 58 taga (o‘sish 24 taga), savdo – 621 tadan 884 taga (o‘sish 263 taga) ko‘paydi.

Hududlar kesimida

Buxoro sh.	481	6,9 %	Buxoro t.	146	7,5 %
Qorako‘l t.	253	18,1 %	Kogon sh.	135	12,8 %
Romitan t.	286	11,2 %	Olot t.	125	13,5 %
Kogon t.	233	14,1 %	Peshku t.	123	8,4 %
G‘ijduvon t.	214	8,0 %	Shofirkon t.	123	8,0 %
Jondor t.	214	10,0 %	Qorovulbozor t.	55	8,7 %
Vobkent t.	184	11,7 %			

2023- yil 1- iyun holatiga ko‘ra, birlikda

Yillar kesimida o‘sish sur’ati (foizda)

Yillar kesimida soni

2023		26 568
2022		28 305
2021		26 302
2020		21 195
2019		17 844



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Sanoat



Qurilish



Savdo



Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish



Axborot va aloqa



Sog'liqni saqlash va Ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Boshqa turlar

Hududiy kesimda eng ko‘p kichik biznes subyektlari Buxoro shahrida (26,3 foiz), G‘ijduvon (10,0 foiz), Romitan (9,7 foiz), Buxoro (7,4 foiz) va Jondor (8,1 foiz) viloyatlarida faoliyat ko‘rsatmoqda. Ushbu hududlarda jami kichik biznes subyektlari sonining 60 foizdan ortig‘i faoliyat ko‘rsatmoqda.

Ma’lumki ayni paytda kichik biznes subyektlari iqtisodiyotning deyarli barcha tarmoqlarida ilg‘or faoliyat yuritmoqda.


Hududlar kesimida

Buxoro sh.	7 001	Shofirkon t.	1 544
G‘ijduvon t.	2 665	Peshku t.	1 463
Romitan t.	2 565	Qorako‘l t.	1 397
Jondor t.	2 144	Kogon sh.	1 051
Buxoro t.	1 958	Olot t.	925
Kogon t.	1 648	Qorovulbozor t.	634
Vobkent t.	1 573		

**Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida faoliyat
ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar
2023- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda**

Hududlar kesimida


Romitan t.	557
Kogon t	315
Jondor t.	311
Buxoro t.	238
G'ijduvon t.	227
Qorovulbozor t	215
Vobkent t.	200
Buxoro sh.	177
Shofirkon t.	186
Qorako'l t	188
Peshku t.	181
Olot t.	88
Kogon sh.	52



O'zbekiston Respublikasida mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan qishloq xo'jaligini rivojlantirishning chuqur o'ylangan strategiyasi izchil amalga oshirilmoqda.

Davlatimiz iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarining muhim tarkibiy qismlaridan biri meva-sabzavot yetishtirishga qaratilgan. Bunday yondashuv aholi ehtiyojlarini to'liq ta'minlash, ularning salomatligini saqlash va bandlik shart-sharoitlarini yaratishda asosiy yo'nalishlardan biriga aylandi.

Baliq ovlash va akvakultura




**O'rmonchilik va yog'och
tayyorlash**

**Dehqonchilik va
chorvachilik, ovchilik va
bu sohalarda xizmat
ko'rsatish**

2023- yil 1- iyun holatiga ko‘ra, birlikda


Hududlar kesimida

Buxoro sh.	940
G‘ijduvon t.	463
Kogon t.	380
Romitan t.	349
Jondor t.	339
Buxoro t	306
Vobkent t.	271
Shofirkon t.	227
Qorako‘l t.	210
Peshku t.	194
Kogon sh.	183
Olot t.	161
Qorovulbozor t.	107



Sanoat tarmog‘i iqtisodiy tarmoqlar ichida eng yuqori salohiyatga ega bo‘lgan tarmoqlardan hisoblanadi.


Sanoat korxonalari soni jami korxona va tashkilotlarning 13,7 foiz ulushini tashkil etdi. Shundan – 94,1 foizini ishlab chiqarish sanoati (o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 84,4 foiz), 3,1 foizini tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash (kamayish 16,4 foiz), 2,4 foizini suv bilan ta’minalash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish (kamayish 2,9 foiz) va 0,4 foizini elektr, gaz bug‘ bilan ta’minalash va havoni konditsiyalash (kamayish 5,6 foizni) tashkil etgan.



2023- yil 1- iyun holatiga ko‘ra, birlikda

Hududlar kesimida

Buxoro sh.	796
Rometan t.	241
Shofirkon t.	221
Jondor t.	216
Buxoro t.	180
Peshku t.	163
G‘ijduvon t.	144
Kogon t.	135
Vobkent t.	118
Kogon sh.	107
Qorako‘l t.	111
Olot t.	77
Qorovulbozor t.	56



O‘zbekistonda qurilish sanoati iqtisodiyotning ustuvor tarmog‘i sifatida belgilangan. Qurilish sanoatining yo‘nalishlari bo‘yicha o‘tkazilgan tahlil shuni ko‘rsatdiki:

- binolar va inshootlar qurish yo‘nalishi 55,9 foiz ulushni tashkil etib, pasayish surʼati o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 81,9 foizni tashkil etdi;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo‘nalishi 17,2 foiz ulushni tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 127,4 foizga o’sgan;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo‘nalishi 26,8 foiz ulushni va o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 83,7 foizni tashkil etdi.

442

Fuqarolik
obyektlarini qurish

688

Ixtisoslashtirilgan
qurilish ishlari


1 435

Bino va
inshootlar qurish

2023- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida

Buxoro sh.	2 266
G'ijduvon t.	1 085
Rometan t.	769
Buxoro t.	680
Jondor t.	625
Qorako'l t.	602
Shofirkon t.	554
Vobkent t.	529
Peshku t.	515
Kogon t.	485
Olot t.	406
Kogon sh.	393
Qorovulbozor t.	171



Tahlillar shuni ko'rsatdiki, viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan har uchinchi korxona savdo sohasida faoliyat yuritadi, ularning 99,7 foizi yoki 9 049 tasi kichik biznes subyektlariga to'g'ri keladi.

Savdo sohasining yo'nalishlar bo'yicha taqsimoti quyidagicha:

- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo yo'nalishi 63,3 foiz ulushni tashkil etgan bo'lib, 2022- yilning mos davri bilan solishtirilganda pasayish sur'ati 96,8 foizni tashkil etdi;
- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo yo'nalishida 26,0 foiz ulushni tashkil etib, pasayish sur'ati 103,1 foizni tashkil etdi;
- avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosini va ularni ta'mirlash yo'nalishida 10,7 foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati 111,9 foizni tashkil etdi.

970

Avtomobil
va mototsikllarning
ulgurji va chakana
savdosini va ularni
ta'mirlash

2 359

Avtomobil
va mototsikllar
savdosidan tashqari
ulgurji savdo


5 751

Avtomobil
va mototsikllar
savdosidan tashqari
chakana savdo

2023- yil 1- iyun holatiga ko‘ra, birlikda

Hududlar kesimida

Buxoro sh.	810
G‘ijduvon t.	215
Rometan t.	157
Jondor t.	126
Vobkent t.	126
Qorako‘l t.	116
Buxoro t.	111
Olot t.	93
Kogon sh.	85
Kogon t.	89
Shofirkon t.	83
Peshku t.	72
Qorovulbozor t.	45



2023- yil 1- iyun holatiga ko‘ra, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar o‘sish surʼati 2019- yilning mos davriga nisbatan 140,7 foizni tashkil etdi. Ushbu xizmatlar sohasi tahlili shuni ko‘rsatdiki:

- mehmonxonalar, turistik oromgohlar, dam olish va ko‘ngilochar parklar yashash bo‘yicha xizmatlar yo‘nalishining asosiy faoliyati hisoblanib, 2023- yil 1-iyun holatiga ko‘ra, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarning 16,9 foiz ulushini tashkil etdi;
- restoran va buyurtma bo‘yicha oziq-ovqat va ovqat mahsulotlarini yetkazish, oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo‘yicha xizmatlar yo‘nalishining asosi hisoblanib, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasining 83,1 foiz ulushini tashkil etdi.

364

Yashash bo‘yicha xizmatlar

1 784

Oziq- ovqat va ichimliklar yetkazish bo‘yicha xizmatlar



2023- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida


Buxoro sh.	165
Kogon sh.	25
Vobkent t.	21
Jondor t.	19
Peshku t.	15
Rometan t.	16
Kogon t.	15
Shofirkon t.	11
G'ijduvon t.	12
Qorako'l t	9
Buxoro t.	11
Qorovulbozor t.	5
Olot t.	4



2023- yil 1-iyun holatiga ko'ra noshirlik faoliyati, kino-videofilmlar, televizion dasturlar, fonogrammalar va musiqali yozuvlarni ishlab chiqish yo'nalishlarida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni axborot va aloqa sohasining 18,9 foizini tashkil etib, pasayish sur'ati 2022- yilning mos davriga nisbatan 105,1 foizga oshdi.

Dasturlar yaratish bo'yicha faoliyat va teleko'rsatuv va radio eshittirishlar hamda aloqa yo'nalishlaridagi korxonalar soni axborot va aloqa sohasining 23,2 foizini tashkil etib, pasayish sur'ati 2022- yilning mos davriga nisbatan 84,4 foizni tashkil etdi.


Kompyuter dasturlashtirish va axborot xizmati ko'rsatish yo'nalishlarida esa korxonalar soni, axborot va aloqa sohasidagi korxona va tashkilotlarning 57,9 foizini tashkil etib, o'sish sur'ati 96,4 foizni tashkil etdi.



2023- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida

Buxoro sh.	352
Buxoro t.	70
G'ijduvon t.	70
Jondor t.	47
Kogon sh.	43
Shofirkon t.	39
Rometan t.	34
Peshku t.	30
Vobkent t.	30
Qorako'l t.	24
Kogon t.	25
Olot t.	9
Qorovulbozor t.	7



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan jami korxona va tashkilotlarning salmoqli qismi – 701 ta yoki 89,9 foiz ulushi tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Yo'nalishlar bo'yicha tahlil shuni ko'rsatdiki:

94,1 foiz korxonalar sog'liqni saqlash yo'nalishiga to'g'ri kelib, pasayish sur'ati 2022- yilning mos davriga nisbatan 98,7 foizni tashkil etdi;

Yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash yo'nalishidagi korxonalar soni 2,6 foizni tashkil etib, o'sish sur'ati 83,3 foizni tashkil etdi;


Yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish yo'nalishidagi korxonalar soni ushbu sohaning 1,7 foizini tashkil etib, o'sish sur'ati 100,0 foizni tashkil etdi;



2023- yil 1- iyun holatiga ko‘ra, birlikda

Hududlar kesimida

Buxoro sh.	530
Jondor t.	328
G‘ijduvon t.	299
Romitan t.	286
Vobkent t.	190
Buxoro t.	164
Kogon t.	115
Shofirkon t.	120
Peshku t.	104
Kogon sh.	57
Qorako‘l t.	31
Olot t.	32
Qorovulbozor t.	21



2023- yil 1- iyun holatiga ko‘ra, tashish va saqlash xizmatlari sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar jami viloyatdagi faoliyat ko‘rsatayotgan korxonaning 7,6 foiz ulushini tashkil etdi.

2022- yilning mos davri bilan solishtirganda tashish va saqlash xizmatlarining yo‘nalishlari bo‘yicha tahlillar shuni ko‘rsatdiki:

quruqlikdagi va quvur transporti yo‘nalishida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarning kamayish sur’ati 83,0 foizni tashkil etdi;

ombor xo‘jaligi va yordamchi transport yo‘nalishining o‘sish sur’ati 102,6 foizni; pochta va kuryerlik yo‘nalishi 91,7 foizni tashkil etdi;

havo transporti yo‘nalishida faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlar soni 100,0 foizni tashkil etdi.




Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy

shakli bo'yicha umumiy ma'lumot

2023- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda

**Tadbirkorlik
subyektlari soni**

**Tadbirkorlik subyektlarining
jamiga nisbatan ulushi**



Tashkiliy-huquqiy shakl deganda, subyekt tomonidan mulkning biriktirilishi, shakllantirilishi va undan foydalanish usuli hamda uning bundan kelib chiquvchi huquqiy holati va faoliyat maqsadi tushuniladi. Shuningdek, quyidagilar bilan bog'liq masalalarni hal qilishda foydalaniladi:

- xo'jalik yurituvchi subyektlar to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan registr, reyestr va kadastrlarning axborot resurslarini shakllantirish;
- tashkiliy-huquqiy shakllar doirasida statistika ma'lumotlarini ishlab chiqish;
- idoralararo axborot almashinishini ta'minlash;
- ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni va hodisalarni tahlil qilish va prognozlashtirish.

Yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan
jamiyatlar to‘g‘risida ma’lumot


2023- yil yanvar-may holatiga ko‘ra, birlikda

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat
ko‘rsatayotganlarga nisbati (foizda)

Yillar kesimida soni



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Mas’uliyati cheklangan jamiyat – bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta’sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta’sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo‘lingan xo‘jalik jamiyati hisoblanadi. Mas’uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatları bo‘yicha javobgar bo‘liyundilar va jamiyat faoliyati bilan bog‘liq zararlar uchun o‘zları qo‘sghan hissalari qiymati doirasida javobgar bo‘ladilar. Mas’uliyati cheklangan jamiyatning o‘z hissasini to‘la qo‘shamagan ishtirokchilari, jamiyat majburiyatları bo‘yicha har bir ishtirokchi hissasining to‘lanmagan qismi qiymati doirasida solidar javobgar bo‘ladilar.

Hududlar kesimida

Buxoro sh.	432	7,8 %	Peshku t.	117	9,5 %
Romitan t.	275	11,7 %	Shofirkon t.	116	9,5 %
Jondor t.	208	10,9 %	Qorako‘l t.	82	11,2 %
Kogon t.	194	15,3 %	Kogon sh.	60	9,5 %
G‘ijduvon t.	180	9,0 %	Qorovulbozor t.	54	9,4 %
Vobkent t.	159	14,3 %	Olot t.	58	14,0 %
Buxoro t.	129	9,0 %			

2023- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni


134,4 %

123,0 %

124,3 %

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)

96,9 %



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



2023- yil 1- iyun holatiga ko'ra faoliyat ko'rsatayotgan 26 747 ta tijorat korxona va tashkilotlarining 20 427 tasi mas'uliyati cheklangan jamiyatlar ulushiga to'g'ri keladi. Mazkur jamiyatlar mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatining eng keng tarqalgan shakli hisoblanadi.

Sohalar kesimida o'sish sur'atlarining tahlili shuni ko'rsatdiki, eng yuqori ko'rsatkich savdo – 32,7 foiz, sanoat – 14,5 foiz, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida – 12,2 foiz, qurilishda – 11,3 foizni tashkil etdi.

Hududlar kesimida


Buxoro sh.	5 544	Shofirkon t.	1 221
Rometan t.	2 352	Vobkent t.	1 114
G'ijduvon t.	1 994	Qorako'l t.	733
Jondor t.	1 901	Kogon sh.	634
Buxoro t.	1 439	Qorovulbozor t.	575
Kogon t.	1 271	Olot t.	414
Peshku t.	1 235		

Yangi tashkil etilgan xususiy korxonalar to‘g‘risida ma’lumotlar


2023- yil yanvar-may holatiga ko‘ra, birlikda

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat
ko‘rsatayotganlarga nisbati (foizda)

Yillar kesimida soni



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Xususiy korxona – mulkdor yagona jismoniy shaxs tomonidan tuzilgan va boshqariladigan tijoratchi tashkilot deb e’tirof etiladi. Xususiy korxona tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shaklidir.

Xususiy korxona o‘z mulkida alohida mol-mulkka ega bo‘ladi, o‘z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo‘lishi hamda ularni amalga oshirishi, majburiyatlarni bajarishi, sudda da’vogar va javobgar bo‘lishi mumkin.


2023- yil yanvar-may oylarida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida yangi tashkil etilgan xususiy korxonalar soni 2022- yilning mos davriga nisbatan 36 taga, sanoat sohasida 29 taga ko‘paygan.

Hududlar kesimida

Qorako‘l t.	115	Buxoro t.	8
Kogon sh.	44	G‘ijduvon t.	3
Buxoro sh.	22	Jondor t.	3
Kogon t.	24	Shofirkon t.	1
Olot t.	24	Vobkent t.	1

2023- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



2023- yil 1-iyun holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan xususiy korxonalar soni o'tgan yilning mos davriga nisbatan 81,4 foizni tashkil etadi.

Xususiy tadbirkorlik subyektlari o'sish sur'atlarining o'tgan yilga nisbatan kamayish qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi (80,5 foiz), axborot va aloqa (73,9 foiz), qurilish sohalari (71,7 foiz), tumanlar kesimida esa – G'ijduvon (66,6 foiz), Buxoro shahar (71,6 foiz), Qorovulbozor (74,2 foiz) va Shofirkon (74,8 foiz) tumanlari ta'sir ko'rsatmoqda.


Hududlar kesimida

Buxoro sh.	799	Vobkent t.	122
Qorako'l t.	404	Jondor t.	111
Olot t.	335	Shofirkon t.	101
Buxoro t.	302	Romitan t.	92
G'ijduvon t.	233	Peshku t.	85
Kogon t.	221	Qorovulbozor t.	23
Kogon sh.	200		

Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar to‘g‘risida ma’lumotlar


2023- yil yanvar-may holatiga ko‘ra, birlikda

Yillar kesimida soni



Yangi tashkil etilganlarning faoliyat
ko‘rsatayotganlarga nisbati (foizda)

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Oilaviy korxona – uning ishtirokchilari tomonidan tovarlar ishlab chiqarish (ishlar bajarish, xizmatlar ko‘rsatish) va realizatsiya qilishni amalga oshirish uchun ixtiyoriy asosda, oilaviy korxona ishtirokchilarining ulushli yoki birgalikdagi mulkida bo‘lgan umumiyl mol-mulk, shuningdek, oilaviy korxona ishtirokchilaridan har birining mol-mulki negizida tashkil etiladigan kichik tadbirkorlik subyektiidir.


Oilaviy korxona faoliyati uning ishtirokchilari shaxsiy mehnatiga asoslanadi va tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakllaridan biridir.

Hududlar kesimida


Qorako‘l t.	56	Buxoro t.	8
Olot t.	41	Shofirkon t.	6
Kogon sh.	32	Romitan t.	11
G‘ijduvon t.	31	Jondor t.	3
Buxoro sh.	24	Peshku t.	5
Vobkent t.	24	Qorovulbozor t.	2
Kogon t.	14		

2023- yil 1- iyun holatiga ko‘ra, birlikda

Yillar kesimida soni



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Yuridik shaxs sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tib, faoliyat ko‘rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 2023- yil 1- iyun holatiga ko‘ra 2022- yilning mos davriga nisbatan 356 taga kamaygan.

Bu esa quyidagi sohalardagi korxonalar: savdoda – 961 tadan 960 taga (kamayish 1 taga), yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar – 824 tadan 746 taga (kamayish 78 ta), sanoatda – 884 tadan 719 taga (kamayish 165 taga) sonining sezilarli kamayishi bilan izohlanadi.

Hududlar kesimida

Buxoro sh.	605	Olot t.	173
G‘ijduvon t.	442	Kogon t.	157
Vobkent t.	337	Peshku t.	135
Qorako‘l t.	251	Jondor t.	120
Kogon sh.	214	Romitan t.	114
Shofirkon t.	215	Qorovulbozor t.	35
Buxoro t.	200		

4- BO'LIM. XORIJIY KAPITAL ISHTIROKIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR TO'G'RISIDA MA'LUMOTLAR

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot 2023- yil yanvar-may holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni



Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar – korxonaning ustav jamg'armasida norezidentlar, chet el yuridik shaxslari (chet el firmalarining filial va bo'linmalari), chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar mulki ishtirokidagi korxonalar hisoblanadi.


Mamlakatimizda xalqaro iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish bo'yicha olib borilayotgan jadal ishlar natijasida, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning soni sezilarli darajada oshib borayotganligini ko'rishimiz mumkin.

Hududlar kesimida

Buxoro sh.		9
Kogon sh..		1
Buxoro t.		1
Qorako'l t.		1
Vobkent t.		1

2023- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Keyingi besh yilda xorijiy kapital ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 2,8 barobarga oshdi.

Yetakchi o'rinni 47 ta korxonada to'liq yoki qisman ulushi mavjud bo'lgan Rossiya Federatsiyasi egallagan. Bu viloyatda xorijiy kapital ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiyligi sonining 15,8 foiz ulushini tashkil etadi. Shuningdek, O'zbekiston iqtisodiyotiga o'z kapitalini kiritayotgan Turkiya (ulushi 15,8 foiz), Xitoy (ulushi 8,4 foiz), Turkmaniston (ulushi 9,7 foiz) va Janubiy Koreya (ulushi 6,0 foiz) davlatlari ham yetakchilar hisoblanishadi.

Hududlar kesimida

Buxoro sh.	160	Qorako'l t.	10
Buxoro t.	26	Jondor t.	5
Kogon t.	25	Shofirkon t.	7
G'ijduvon t.	13	Vobkent t.	5
Romitan t.	17	Qorovulbozor t.	4
Peshku t.	10	Olot t.	4
Kogon sh.	12		

2023- yil yanvar-may holatiga ko‘ra, birlikda

	Davlatlar nomi	soni
	Afg‘oniston	1
	Xitoy	2
	Germaniya	1
	Yaponiya	1
	Qozog‘iston	1
	Pokiston	2
	Rossiya	1
	Birlashgan AA	1
	Turkmaniston	4

O‘zbekistonda iqtisodiy o‘sishni jadallashtirish, xalqaro aloqalarni kengaytirish va to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar uchun qulay huquqiy muhit yaratish bo‘yicha keng qamrovli iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar olib borilmoqda. Mamlakatning strategik geografik joylashuvi, boy va xilma-xil tabiiy resurslari o‘sish uchun ulkan imkoniyatlarni namoyon etadi. O‘zbekiston hukumati o‘z fuqarolarining farovonligini oshirish, biznesni rivojlantirish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etishni rag‘batlantirish maqsadida, chet el investitsiyalarini ko‘paytirishga ustuvor ahamiyat bermoqda.

2023- yil 1- iyun holatiga ko‘ra, birlikda

Davlatlar nomi	soni
Rossiya	47
Turkiya	44
Turkmaniston	29
Xitoy	25
Afg‘oniston	29
Eron	21
Koreya	18
AQSh	9
Tojikiston	7
Boshqalar	69

O‘zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo‘nalishlariga e’tibor berish, qo‘shni davlatlar bilan yaxshi qo‘shnichilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg‘araz asosda kengaytirishdir.

Buning samarasida, bugungi kunda O‘zbekiston iqtisodiyotning turli tarmoqlarida tadbirdorlik faoliyatini yuritish va investitsiyalarni jalb qilish uchun zarur bo‘lgan ichki sharoitlarni yaratish jarayonini rag‘batlantirishga qaratilgan izchil islohotlar amalga oshirilayotgani kuzatilmoqda.

Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalardan 166 tasi qo‘shma korxonalar, 132 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to‘g‘ri keldi.

2023- yil 1- iyun holatiga ko‘ra, birlikda

xorijiy korxonalar

qo‘shma korxonalar

86	Buxoro sh	74
7	Buxoro t	19
9	Kogon t	16
3	Kogon sh	9
4	G‘ijduvon t	9
5	Romitan t	12
0	Jondor t	5
2	Shofirkon t	5
4	Qorako‘l t	6
2	Vobkent t	3
6	Peshku t	4
2	Qorovulbozor t	2
2	Olot t	2

2023- yil 1- iyun holatiga ko‘ra, birlikda



So‘nggi yillarda O‘zbekiston iqtisodiyotni jadal o‘zgartirishni boshdan kechirdi va xalqaro hamjamiyatda ochiqlik, innovatsiya va biznes va sarmoyaviy to‘siqlarni bartaraf etishda qat’iylik timsollaridan biri sifatida tobora ko‘proq e’tirof etilmoqda.

Demak, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonining ko‘payishi, avvalambor, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining huquqiy asoslari takomillashtirilgani bilan bog‘liq.

Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri – real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma’lumotlardan iborat bo’lgan axborot-ma’lumotnomalar tusidagi avtomatlashtirilgan tizim hisoblanib, yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikasiyalashtirishni ta’minlaydi.

Ro‘yxatga olingan – ro‘yxatdan o‘tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestriga mavjud bo‘lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko‘rsatayotgan – ro‘yxatdan o‘tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan hamda moliya-xo‘jalik faoliyatini amalga oshiriyunotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to‘g‘risidagi ma’lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

Yangi tashkil etilgan – ro‘yxatdan o‘tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

Yuridik shaxslarning faollik darajasi – ma’lum bir davrda faoliyat ko‘rsatiyunotgan yuridik shaxslarning jami ro‘yxatdan o‘tgan yuridik shaxslarga nisbatining foizdagi ifodasi.

Kichik korxona va mikrofirmalar – O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagи “Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o‘tish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 275- son qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo‘lgan korxonalar va tashkilotlar.

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar – norezidentlar ishtirokidagi korxonalar, xorijiy yuridik shaxslar (xorijiy firmalarning filiallari va bo‘limlari), korxonaning ustav fondida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar ishtirok etgan korxonalar.

Ma’lumotlar O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlari markazi ma’lumotlar bazasi asosida 2023- yil 1- iyun holatiga ko‘ra (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz) shakllantirildi.



Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Statistika agentligining www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, so‘ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo‘yilgan.



Buxoro viloyat statistik registrlarni
yuritish bo‘limi
Tel.: (65) 223-83-20